

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

F.A.Yuldashev

Axborotlashgan jamiyat sharoitida yoshlarning ehtiyoj va manfaatlarini
gumanizatsiyalash masalalari 218

I.A.Asatulloev

Alfred adler falsafasida qalb tushunchasining psixoanalitik tahlili 223

D.Sh.Sagdullayeva

Ijtimoiy - siyosiy modernizatsiya jarayonining tarixiy ildizlari 228

S.S.Sodiqov

Yoshlarda faol pozitsiyani shaklantirishning milliy-tarixiy asoslari 234

I.A.Hamdamov

Mirzo Ulug'bek – temuriylar renessansi asoschisi 240

H.X.Xakimov

Развитие социально экономических идей в трудах ученых энциклопедистов

Узбекистана в период первого ренессанса 245

Q.H.Boymirzayev

Abu Abdulloh Rudakiyning hayoti va faoliyat yo'li, uning Musulmon Sharqidagi
ijtimoiy-madaniy muhitning shakllanishidagi o'rni 252

B.M.Qandov, N.A.Abduveita

Yangilanayotgan O'zbekistonda aholini ish bilan ta'minlashning ijtimoiy-huquqiy asoslari 256

E.T.Qalqanov

Vatanparvarlik madaniy hodisa sifatida ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari 261

Sh.X.Tog'ayev

Yangilanayotgan O'zbekistonda o'zbek xalqi milliy g'ururini shakllantirishning
manbalari va vositalari 266

I.A.Ikramov

Jamiyat ijtimoiy hayotida ijtimoiy xotira va madaniy qadriyatlar strukturasi 272

V.B.Zayniddinova

Jamiyat taraqqiyoti va ijtimoiy-madaniy texnologiyalar strategiyasi 277

J.M.Miraxmedov

Milliy o'zlikni anglash kontekstida tarixiy ongning gnoseologik tahlili 281

B.X.Mirzaraximov

O'zbekiston yangi taraqqiyot bosqichida turizm madaniyati rivojlanishining
ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy omillari 285

D.E.Normatova

Ekzistensializm – hayot falsafasi 293

SIYOSAT**I.A.Raximov**

"Obod va xavfsiz mahalla" tamoyilining xavfsiz muhitni yaratishdagi o`ziga xos
mexanizmlari" 297

M.H.Rustamaliyev

Jamiyatni barqaror taraqqiyotini ta'minlashda siyosiy boshqaruvga ehtiyojning kuchayishi 302

N.B.Dexkanov

Siyosiy piar (pr)ning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni 306

M.X.Baratov, R.T.Xakimov, B.T.Akramxodjaev

Jahon Savdo tashkilotining tuzilishi, funksiyalari va faoliyat doirasi 312

J.K.Yusubov, F.X.Mustafoyeva

Mamlakatimiz ijtimoiy rivojlanishida jahon davlatlari tajribasidan foydalanish 323

J.K.Yusubov, D.A.Xusanova

Ahloqan yetuk va fidoiy davlat fuqarolik xizmatchilarini tarbiyalash – mamlakat rivojining
muhim omili 327

TARIX**A.Sharafiddinov**

Farg'ona viloyatida yog'-moy sanoatining shakllanishi tarixidan
(XIX asr oxiri XX asr boshlari) 331



УО'К: 141.2

IJTIMOIY - SIYOSIY MODERNIZATSIYA JARAYONINING TARIXIY ILDIZLARI

ИСТОРИЧЕСКИЕ КОРНИ ПРОЦЕССА ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ
МОДЕРНИЗАЦИИ

HISTORICAL ROOTS OF THE PROCESS OF SOCIAL - POLITICAL MODERNIZATION

Sagdullayeva Dilbar Shuxratovna

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti dotsenti,
falsafa fanlari nomzodi**Annotatsiya**

Yangi O'zbekistonni - obod va farovon, demokratik mamlakatni, Uchinchi Renessansni barpo etish oldimizda turgan strategik ahamiyatga ega bo'lgan vazifadir. Ushbu vazifaning ro'yobi ko'p jihatdan jamiyat hayotini iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, huquqiy jihatdan tubdan takomillashtirish bilan uziyi bog'liqdir. Yangilash, takomillashtirish, ya'ni modernizatsiyalash, liberalallashtirish, demokratillashtirish orqali namoyon bo'ladi. Hayot sohalarini, xususan ijtimoiy, siyosiy modernizatsiyalash inson kapitali orqali jamiyatni taraqqiy ettirishni nazarda tutadi. Falsafa tarixida ham jamiyat hayotini o'zgartirish mezonlari asosiy masala bo'lib kelgan. Unga nisbatan shakllangan turli tuman qarashlar, yondoshuvlar taraqqiyot g'oyasida ifoda etilgan.

Ijtimoiy siyosiy modernizatsiya jarayonining tarixiy ildizlari masalasini tahlil etishda qiyoslash, umumillashtirish, tizimli tahlil, analiz va sintez, induksiya kabi ilmiy usullardan foydalanildi.

Mazkur masalani o'rganishda falsafiy tafakkur taraqqiyotining turli davrlarida faylasuflar ijodida unga nisbatan qaror topgan nuqtai nazarlar tahlil etildi. Bunda taraqqiyot g'oyasi modernizatsiya jarayonining poydevari sifatida asoslandi. Modernizatsiya paradigmasiga nisbatan zamonaviy qarashlar ham tahlil etilib, uning fuqarolik jamiyatini rivojlantirishdagi ahamiyatini o'rganildi. An'anaviy jamiyatdan zamonaviy jamiyatga o'tishning o'ziga xos jihatlari haqida fikr yuritildi.

Mavzuga oid asarlarni o'rganish asosida, ijtimoiy taraqqiyot g'oyasi birinchidan, markazlashgan davlat barpo etishning natijasi, ikkinchidan, inson aql zakovati, ma'rifatning cho'qqisi, uchinchidan, axloq va huquq uyg'unligi sifatida talqin etilganligi xulosalandi.

Аннотация

Построение нового процветающего, демократического Узбекистана является задачей стратегического значения. Решение этой задачи во многом тесно связано с коренным улучшением жизни общества в экономическом, политическом, социальном и правовом отношении. Обновление, совершенствование, т.е. модернизация, проявляется через процессов либерализации, демократизации. Модернизация сфер жизни, особенно социальной и политической, предполагает развитие общества через человеческий капитал. В истории философии критерии изменения жизни общества были главным вопросом. В идеи развития выражаются различные взгляды и подходы, сложившиеся по отношению к ней.

При анализе исторических корней процесса социально-политической модернизации использовались такие научные методы, как сравнение, обобщение, системный анализ, анализ и синтез, индукция и дедукция.

При исследовании данного вопроса были проанализированы точки зрения, определившиеся по нему в трудах философов в разные периоды развития философского мышления. При этом идея развития была заложена в основу процесса модернизации. Также были проанализированы современные взгляды на парадигму модернизации, изучено ее значение в развитии гражданского общества. Обсуждались конкретные аспекты перехода от традиционного общества к современному обществу.

На основе изучения работ по теме был сделан вывод, что идея общественного развития трактуется как, во-первых, результат установления централизованного государства, во-вторых, человеческого интеллекта, вершины просвещения и в-третьих, гармония морали и права.

Abstract

Building a new prosperous, democratic Uzbekistan is a task of strategic importance. The solution to this problem is in many ways closely connected with a radical improvement in the life of society in economic, political, social and legal terms. Update, improvement, i.e. modernization manifests itself through the processes of liberalization and democratization. Modernization of spheres of life, especially social and political, involves the development of society through human capital. In the history of philosophy, the criteria for changing the life of society have been the main issue. The idea of development expresses different views and approaches that have developed in relation to it.

When analyzing the historical roots of the process of socio-political modernization, scientific methods such as comparison, generalization, system analysis, analysis and synthesis, induction and deduction were used.

When studying this issue, the points of view that were defined on it in the works of philosophers in different periods of the development of philosophical thinking were analyzed. At the same time, the idea of development was the basis of

FALSAFA

the modernization process. Modern views on the modernization paradigm were also analyzed, and its significance in the development of civil society was studied. Specific aspects of the transition from traditional society to modern society were discussed.

Based on the study of works on the topic, it was concluded that the idea of social development is interpreted as, firstly, the result of the establishment of a centralized state, secondly, human intelligence, the pinnacle of enlightenment, and thirdly, the harmony of morality and law.

Kalit so'zlar: yangilanish, o'zgarish, rivojlanish, taraqqiyot, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy hayot, modernizatsiya, demokratlashtirish, an'anaviy jamiyat, fuqarolik jamiyat

Ключевые слова: обновление, изменение, развитие, прогресс, социальная, экономическая, политическая, культурная жизнь, модернизация, демократизация, традиционное общество, гражданское общество.

Key words: renewal, change, development, progress, social, economic, political, cultural life, modernization, democratization, traditional society, civil society.

KIRISH

Mamlakatimiz uchun demokratik islohotlar yo'li - yakkayu yagona yo'ldir. Aynan Yangi O'zbekiston tushunchasi mamlakatimizning zamnaviy qiyofasini shakllantirish, yurtimizda demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish, Uchinchi Renessans poydevorini yaratish maqsadida amalga oshirilayotgan islohotlarimizning asosiyligi g'oyasini ifoda etadi. Jamiyatni siyosiy-huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy modernizatsiya qilish, ma'naviy jihatdan tiklash va yuksaltirish, mavjud qonunlarni, davlat boshqaruvi, iqtisodiy tizimni qayta ko'rib chiqish, bu borada ta'sirchan va samarali mexanizmlarni yaratish, demokratik tamoyil va me'yordarni hayotga tatbiq etish bo'yicha misli ko'rilmagan keng ko'lamli yangilanish va tub islohotlar jadalllik bilan ro'y bermoqda. Yangi O'zbekiston - bu "Xalq manfaati hamma narsadan ulug'" degan ezgu g'oya hamda - "Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak" degan hal qiluvchi tamoyil amalda o'z tasdig'ini topayotgan mamlakatdir [1].

Yangi O'zbekiston fenomenining mohiyati jamiyat sohalarini modernizatsiyalashni nazarda tutadi. Modernizatsiya esa bu - iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, huquqiy hayotni liberallashtirish va demokratlashtirish sifatida namoyon bo'luvchi jarayondir, uning natijasi mamlakatimizning yangi qiyofasini ko'rsatuvchi tub sifat o'zgarishlarida ifoda bo'ladi. Shunday ekan, ijtimoiy-siyosiy modernizatsiyalash jarayonining mohiyati, mamlakatimiz taraqqiyotidagi ahamiyatini tadqiq etish muhimdir.

Ijtimoiy-siyosiy modernizatsiya tushunchasi mohiyatan yangi sifat darajasi bilan namoyon bo'luvchi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishni anglatadi. Jamiyatlar taraqqiyotining yangi bosqichga ko'tarilishini ifoda etuvchi ijtimoiy jarayon sifatida modernizatsiyaga doir qarashlar bir necha asrdan buyon davom etib kelmoqda. Bu esa uning ilgarilab, olg'a borish, tadrijiylik va nisbiy barqarorlik kabi xususiyatlarini asoslaydi, albatta. Biroq modernizatsiya tushunchasi ilmiy bilimlar rivoji davrining mahsuli bo'lsa-da, insoniyat tarixiy taraqqiyotining dastlabki davrlarida ham, uning asosini tashkil etuvchi taraqqiyot g'oyasi olimlar diqqat e'tiborida bo'lgan. Zero, insoniyat azaldan jamiyat boshqaruvi tizimini, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy munosabatlar va ular orqali o'z turmush tarzini takomillashtirib borishga urinib kelmoqda. Haligacha inson farovon hayot tarzini ta'minlab bera oluvchi davlat va jamiyat shaklini izlamoqda. Insoniyatning buguni va kelajagini uning o'tmishdagi mehnati va intilishlari belgilashidan kelib chiqib, modernizatsiya konsepsiysi mohiyatiga daxldor nuqtai nazarlar ibtidosini falsafa tarixidan axtarish imkoniyatidan foydalanishni ma'qul deb topdik.

ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODLAR

Jamiyat hayotini modernizatsiyalash masalasi 20 asrning o'talarida dunyo miqyosida keng quloch yoygan jarayon sifatida g'arb ilm fanida chuqur o'rganilgan. G'arb olimlari D.Apter, R.Bendiks, S.Blek, M.Levi, D.Lerner, L.Pay, T.Parsons, N.Smelzer, U.Rostou, S.Xantington, Sh.Eyzenshtadt, V.Sapf va boshqalar asarlarida modernizatsiya nazariyalarining mohiyati, namoyon bo'lish shakllari tahlil etilgan. Hozirgi davr olimlardan G.Fedotova, I.Poberejnikov va boshqalar asarlarida rus jamiyat modernizatsiyalashuvi masalalari o'rganilgan.

Bugungi jamiyat mavjudlik sohalarini yangi rivojlanish darajasiga ko'tarish jarayonida mamlakatimiz olimlari ilmiy izlanishlarida modernizatsiya jarayonini tadqiq etishga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Tadqiq etilayotgan muammoning metodologik jihatlari mamlakatimiz olimlari S.Otamurodov, M.Abdullayeva, A.Qodirov, I.Ergashev, M.Qirg'izboyev, F.Musayevlar tomonidan asoslangan.

Jamiyatni modernizatsiyalash jarayonining alohida jihatlari, xususan, ijtimoiy-siyosiy modernizatsiya masalalari A.Saidov, S.Jo'rayev, G.Tulenova, B.Omonov, Sh.Madayeva, T.Xojiyev kabi faylasuf, huquqshunos, siyosatchi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Maqolada falsafiy tafakkurning qiyoslash, umumlashtirish, tizimli tahlil, analiz va sintez, induksiya va deduksiya kabi ilmiy usullariga tayanildi

NATIJALAR VA MUHOKAMA

"Muayyan xalq yoki davlat hayoti uchun g'oyat muhim ahamiyat kasb etadigan biror-bir fenomen yoki u haqidagi tushuncha va tamoyillar o'z-o'zidan, osongina paydo bo'lmaydi va tasodifan dunyoga kelib qolmaydi"[1].

Insoniyat tarixiy taraqqiyotining dastlabki davrlarida modernizatsiya tushunchasi hali ishlatilmagan bo'lsa-da, uning asosini tashkil etuvchi taraqqiyot g'oyasi faylasuflar diqqat e'tiborida bo'lган. Modernizatsiya fenomenining o'zi rivojlanish, taraqqiyot haqidagi qarashlar orqali ijtimoiy ongda qaror topdi. Shuning uchun ham turli tarixiy davrlarda shakllangan ijtimoiy o'zgarishlarga oid qarashlar modernizatsiya genezisini asoslashga xizmat qila oladi deb hisoblash mumkin.

Taraqqiyot g'oyasining dastlabki "kurtaklari" antik davrga borib taqaladi. Agar ularda tabiat va jamiyat o'zgarish, o'sish jarayonida ekanligi ta'kidlanib, jamiyatning rivojlanish bosqichlari asoslangan bo'lsa, o'rta asrlarda esa ijtimoiy taraqqiyotga teokratik yondoshuv hukmronlik qildi.

Keyingi davrlarga oid ta'llimotlarda ham jamiyatni siyosiy, ijtimoiy rivojlantirish g'oyalari ilgari surildi. Xususan, Nikkola Makiavelli "Adolat - Kuchdadir" degan g'oyani himoya qilib, u Italiyani jamiyatidagi ixtiologlarni bartaraf etish, tabiatan xudbin bo'lган kishilarning birgalikda yashashlarini va millat ravnaqini ta'minlashga xizmat qiluvchi qudratli umumdavlatga birlashtirish, isloh qilish orqali mamlakatni yuksaltirish lozimligi g'oyasini himoya qildi.

Agar ushbu falsafiy nuqtai nazar o'rta asrlarda G'arbda nazariy asoslangan bo'lsa, Sharq, xususan, O'rta Osiyoda esa bu davrda markazlashgan davlat barpo etish orqali mamlakatni ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy rivojlantirish g'oyasi amaliyotda ishladi. "Kuch-adolatdadir" degan oliy me'yorni shior qilib olgan davlat arbobi jamiyatdaadolatning hukm surishini shariat qonunlarida ko'rdi. Bu borada Ali Yazdiyning "Zafarnoma"sida keltirilgan fikriga ko'ra, olimlar va fuzalolar oldida qilgan Amiring nutqi mamlakatini rivojlantirishga nisbatan yondashuvidan dalolatdir: "... Agar oldin bizning diqqat e'tiborimizda o'zga mamlakatlarni ishg'ol qilish uchun bo'lган harbiy yurishlar turgan bo'lsa, endilikda mamlakatda xotirjamlik o'rnatishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish bosh vazifamizdir"[2]. Yuqoridagilardan adolat Amir Temuring g'oyasidan ijtimoiy siyosatga aylanganligini, shu tariqa xalqni tashkil etilgan yagona, markazlashgan qudratli davlatni yuksaltirishga safarbar etib, mustahkam, axloqiy baquvvat milliy mafkurani yaratganini payqash qiyin emas.

Agar o'rta asrlarning so'nggi choragida faylasuflar asarlarida xalq davlat hokimiyatining yakka-yu yagona manbai sifatida e'tirof etilib, uning turmushini farovonlashtirish qudratli markazlashgan davlat barpo etish orqaligina amalga oshishi mumkinligiga asosiy urg'u berilgan bo'lsa, yangi davrda jamiyatdagi o'zgarishlar turli yo'nalishdagi ilmiy kashfiyotlar, ularning iqtisodiy munosabatlarda aks etishida namoyon bo'ldi. Yangi davrda taraqqiyot ilmiy bilish sohasida kuzatildi.

Agar F.Bekon (1561-1626) va R.Dekart (1596-1650) o'tmishga, orqaga qarayvermaslik kerak, ilmiy bilim olamni olg'a rivojlantiradi, deb ko'rsatsalar [3], Kondorse (1743-1794) tomonidan taraqqiyot g'oyasi ijtimoiy munosabatlar sohasiga ham tatbiq etildi [4]. Kondorse fikricha, inson qobiliyatları rivojining chegarasi yo'q, shuning uchun «tarix hech qachon orqaga qaytmaydi», lekin turli bosqichlarda taraqqiyot turli xil tezlikka ega bo'lishi mumkin.

Ma'rifatparvarlik falsafasida esa taraqqiyot g'oyasi turli nuqtai nazaridan tahlil etildi, inson aql zakovatiga bog'lab tushuntirildi. Agar Didro(1713-1784), Volter(1694-1778), Dalamber(1717-1783) qarashlarida ijtimoiy taraqqiyot inson aql zakovatiga bog'lab tushuntirilgan bo'lsa, Viko(1668-1744) va Russo(1712-1778) ta'llimotida tarixiy jarayonning ziddiyatli ekanligiga urg'u berildi.

Didro, Volter, Dalamber fikrlariga ko'ra, ijtimoiy muhitni yangilash faqat ma'rifatning rivoji orqaligina amalga oshishi mumkin. Fikr jamiyatni boshqaradi. Ushbu qarashlardan kishilarning fikri qanday bo'lsa, jamiyat ham ijtimoiy muhit va uning tuzilishi ham shunday bo'ladi degan xulosa kelib chiqadi.

Ayni chog'da Viko va Russo ta'llimotida esa organik evolyutsiya g'oyasi, tarixiy davrlarning individualligi va beqiyosligi haqidagi tezis himoya qilindi [5]. Lekin bu tarixiylik o'tmishga qaratilgan edi.

FALSAFA

XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida ijtimoiy taraqqiyot g'oyasi keng qamrovda tadqiq etildi. Uning eng yuqori cho'qqisini Gegel (1770-1831)ning rivojlanish nazariyasi tashkil etdi. Gegel o'tmishga salbiy munosabatni ham, soxta tarixiylikni ham keskin tanqid qildi. Ma'rifatparvarlik davri namoyondalaridan farq qilib, Gegel tarixga inson ongi va irodasidan tamomila mustaqil mavjud bo'lgan, faqat olg'a qarab rivojlanuvchi qonuniy jarayon [6] sifatida yondoshdi. Gegel nazarida, tarix barcha davrlar va xalqlar tajribasini qamrab olgan yagona, mantiqiy davomli evolyutsion jarayondir.

Veber Gegel falsafasini o'rganish asosida, Xudo g'oyasi bilan dunyoviy hayot qo'shilushi g'oyasida kapitalizm "ruhi" mujassamlanganligini ta'kidlaydi. Professor A.Qodirov aynan shu g'oya G'arb sivilizatsiyasining an'anaviy jamiyatdan zamonaviy jamiyatga o'tishi uchun ma'naviy asos bo'lganligiga urg'u beradi[7]. Veber fikricha kapitalizmni kapitalizm qilgan sinfiy ekspluatatsiya emas, balki protestant mehnat etikasidir. Protestant mehnat etikasi – kapitalizm "ruhi"dir [8].

Demak, Gegel falsafasida maqsad, niyat, yaxshilik yig'indisidan iborat bo'lgan axloq, huquq bilan birgalikda jamiyat rivojining asosi sifatida talqin etiladi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, aytish mumkinki, XYII-XIX asrlarda "G'arb sivilizatsiyasida axloq inson erkinligining bir vaqtning o'zida ham asosi va ham natijasiga aylandi". "G'arb sivilizatsiyasida an'anaviy jamiyatdan zamonaviy jamiyatga o'tish inson xulq-atvorining ichki boshqaruvchisi bo'lmissa diniy axloq orqali amalga oshirildi"[9].

Gegel ta'limotining diqqatga sazovar jihatlaridan yana biri shundaki, uningcha insoniyat jamiyati evolyutsiyasi cheksiz emas. Insoniyat o'zining eng chuqur va asosli intilishlarini qondirish imkonini bergen ijtimoiy tuzumga erishganda, (barpo qilganda) uning evolyutsiyasi o'z nihoyasiga yetadi. Bundan Gegel ta'limotida ham "tarixning yakuni" haqida fikr yuritilganini hamda huquqiy davlat uningcha, ko'zlangan maqsad ekanligi diqqatimizni tortadi. Gegel asarlarini o'rganish, uning tomonidan ijtimoiy falsafa masalalari ham dialektik asoslanganidan guvohlik beradi. Uning fikricha, tarixiy taraqqiyot jarayonda mulkchilikning qaror topishi huquqning ijtimoiy ong shakli sifatida yuzaga kelishini kafolatlaydi, qayerda huquq qaror topsa, o'sha yerdagina o'sish, rivojlanish sodir bo'ladi. Jamiyat taraqqiyoti esa oxir oqibat davlat bilan, aynan huquqiy davlat o'rnatilishi bilan bog'lab tushuntiriladi. Demak, ijtimoiy munosabatlар rivojining o'ziga xos ko'rinishi sifatida faylasuflar ta'limotlaridagi huquqiy davlat, liberallashuv g'oyalari Yevropada keyingi davrlarda amaliyotga tatbiq etila boshlandi. G'arba qonun oldida tenglik, erkinlik qaror topib ishlayotgan bir vaqtida Sharqda xususan, Markaziy Osiyoda jamiyatni o'zgartirish, uni taraqqiy ettirish maqsadidagi harakatlar avj ola boshladi.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida milliy mustaqillik va demokratik qadriyatlar uchun faol kurash olib borgan jadidlardan biri Behbudiy "Ulug' Turkiston"(1917.12.06)da e'lon qilingan "Bayoni haqiqat" maqolasida shunday deb yozadi: "Bilmoq kerakki, haq olinur, berilmaydur. Har bir millat va mamlakat xalqi o'zining huquqi, dini va siyosatini harakat, ittifoq ila boshqalardan oladi..."[10]. Abdurauf Fitrat esa, o'zining "Sayyohi hind", "Rahbari najot" kabi asarlarida (Istambul 1913, 1915yy.) milliy istiqlol Ovro'pacha ma'rifat, ilm-fan, texnika taraqqiyoti, demokratik huquqiy erkinliklar, inson sha'nini yuksak tutish, muhofaza qilish kafolatlari orqali qo'lga kiritilishini Dasturiy tarzda har tomonlama asoslab bergen. Demak, bu davrda Turkistonda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy vaziyatni o'zgartirish, yaxshilashga ma'rifiy vositalar orqaligina erishish mumkinligi asosiy e'tiborda bo'ldi. Mustamlaka zulmidan ezilgan musulmon xalqlari qaddini rostlab olishining birdan bir yo'li – maorifni isloh qilish, yangilash, diniy bilimlar bilan birgalikda dunyoviy bilimlarni o'rganish ekanligini targ'ib qilgan jadid ("yangi", "isloh qilish")lar harakati Markaziy Osiyoda jamiyatni modernizatsiyalashning muhim bosqichi sifatida namoyon bo'ladi.

XVIII-XIX asrlarda esa ijtimoiy, iqtisodiy munosabatlardagi tub sifat o'zgarishlari ta'sirida faylasuflar g'oyalalaridagi taraqqiyot tushunchasi sanoat revolyutsiyasi, sanoatlashish tushunchasiga o'girilib, sanoatlashishgacha bo'lgan va postindustrial jamiyat haqidagi tushunchalar paydo bo'ldi. Bundan kelib chiqib, ko'p hollarda modernizatsiya an'anaviydan industrial jamiyatga o'tish jarayoni sifatida o'rganildi.

O'zbekiston jamiyatni ilmiy tafakkurida XXI asrning dastlabki choragi yangilanish, o'zgarish, rivojlanish, taraqqiyotga erishish sifatida tavsiflanuvchi modernizatsiya jarayoni keng quloch yozib bormoqda.

Mamlakatimizda ijtimoiy davlat tamoyillarining ishlashi amalga oshirilayotgan modernizatsiya jarayonlarida inson manfaatdorligi ustuvorligini ta'minlaydi. Zero, ijtimoiy, huquqiy davlatchilik poydevorining barpo etilishi, ijtimoiy davlatning sifat belgilari amal qilishiga olib kelsa, uning

zaminida liberallashuv jarayonlarining sodir bo'lishi shunchalik imkoniy bo'lib, demokratiya tamoyillarining ishlashi, oxir oqibat fuqarolik jamiyatni rivojining kafolati hisoblanadi.

Bu borada professor I. Saifnazarov "Pragmatizm – O'zbek falsafasi" nomli maqolasida ilgari surgan g'oyalar diqqatga sazovardir. "Pragmatizmning asosiy g'oyasi, deb yozadi faylasuf, har bir individ hayotiga ma'suliyat bilan yondashib, o'z turmushidan, umuman, hayotdan qoniqish asosida farovonlik darajalarini ta'minlab borishdan iborat. Kundalik turmushda esa pozitiv natija va amaliy naf ko'rishga yo'naltirilgan qarashlar va intilishlarni asosiy o'ringa qo'yuvchi strategik faoliyat sifatida baholamoq lozim. Pragmatiklik esa tanlangan hayotiy strategiyani amaliy intilishlar asosida ta'minlovchi rejali faoliyatdir.

Zamonaviy fanda modernizatsiya jarayoni tahliliga oid qator nuqtai nazarlar mavjud. Ularning bir guruhi vakillari modernizatsiyani - an'anaviy jamiyatdan zamonaviy jamiyatga o'tish jarayoni sifatida izohlaydi. Professor A.Qodirov "An'anaviy jamiyat haqida fikrlar ekan, – bu kishini yana mutelikka, kamsuqumlikka, mo'min qobil bo'lishga, itoatgo'lylikka, sabr qanoatli bo'lishlikka undovchi jamiyatdir. An'anaviy jamiyat - inson hayotini barcha jabhalarini takrorlanish qonuniyatiga asoslangan jamiyatdir. U turg'unlikka eltadi", - deb yozadi. Bu borada professor I. Saifnazarov "Pragmatizm – O'zbek falsafasi" nomli maqolasida ilgari surgan g'oyalar diqqatga sazovardir. "Pragmatizmning asosiy g'oyasi, deb yozadi faylasuf, har bir individ hayotiga ma'suliyat bilan yondashib, o'z turmushidan, umuman, hayotdan qoniqish asosida farovonlik darajalarini ta'minlab borishdan iborat. Kundalik turmushda esa pozitiv natija va amaliy naf ko'rishga yo'naltirilgan qarashlar va intilishlarni asosiy o'ringa qo'yuvchi strategik faoliyat sifatida baholamoq lozim. Pragmatiklik esa tanlangan hayotiy strategiyani amaliy intilishlar asosida ta'minlovchi rejali faoliyatdir.

Zamonaviy fanda modernizatsiya jarayoni tahliliga oid qator nuqtai nazarlar mavjud. Olimlarning bir guruhi vakillari modernizatsiyani - an'anaviy jamiyatdan zamonaviy jamiyatga o'tish jarayoni sifatida izohlaydi. Professor A.Qodirov "An'anaviy jamiyat haqida fikrlar ekan, – bu kishini yana mutelikka, kamsuqumlikka, mo'min qobil bo'lishga, itoatgo'lylikka, sabr qanoatli bo'lishlikka undovchi jamiyatdir. An'anaviy jamiyat - inson hayotini barcha jabhalarini takrorlanish qonuniyatiga asoslangan jamiyatdir. U turg'unlikka eltadi", - deb yozadi.

Rossiyalik olima V.Fedotova fikriga ko'ra, modernizatsiya an'anaviydan zamonaviylikka o'tishni anglatadi. Zamonaviy jamiyat esa, uningcha, innovatsiyalarga yo'nalgaligi, innovatsiyalarning an'anaviylikdan ustun kelishi, ijtimoiy hayotning dunyoviy xarakteri, ilgarilama olg'a qarab rivojlanish (davriy emas), shaxsga yo'nalgalik, sanoatlashish, ta'limning ommalashuvni kabilarni qamrab olishi bilan an'anaviy jamiyatdan tubdan farq qiladi[13].

An'anaviy jamiyatdan zamonaviy jamiyatga o'tish o'z navbatida ijtimoiy tizim turli darajalarida bir vaqtida sodir bo'lувчи ko'plab o'zgarishlarni qamrab oluvchi keng miqyosli jarayondir. atdan zamonaviy jamiyatga o'tish jarayoni keng ko'lamli tub sifat o'zgarishlari orqali sodir bo'ladi. Shuning uchun ham olimlarning ushbu jarayonga nisbatan munosabatini tasniflash ular o'rtasida deterministik bog'lanish mavjudligini ko'rsatadi.

Faylasuf olimlar Kodirova Z.R., Yaxshilikov J.Ya. modernizatsiya nazariyasining asosiy tushunchalari haqida fikr yuritib, an'ana zamonaviylikka ma'lum moslashuvchanligini, moslashish qobiliyatini namoyon qilib, modernizatsiyaning o'ziga xos milliy shakllarini vujudga keltiradi, deb ta'kidlaydilar. Ular fikricha, modernizatsiya zamonaviy madaniy modellar va institutlar, qadriyatlarning qabul qilinishidir [14].

O'tamurodov fikricha, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan siyosiy modernizatsiya jarayonlari o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra, zamonaviy fuqarolik jamiyatini barpo etish orqali xalqning erkin va farovon hayot kechirishi uchun shart-sharoit yaratishga qaratilgan. Barcha islohotlar o'zgartirish va modernizatsiya siyosati foydasiga qaratilgan. Siyosiy modernizatsiya jarayonlarining dastlabki bosqichida mamlakatimizda davlat boshqaruvi tizimini zamonaviy demokratik talablar asosida isloh qilishga qaratilgan siyosiy-huquqiy chora-tadbirlar amalga oshirildi [15].

XULOSA

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, jamiyat taraqqiyotini yangi sifatga ko'tarishga xizmat qiluvchi modernizatsiya jarayoni yaqin o'tmishning mahsuli bo'lsa-da, unda ilgari surilayotgan taraqqiyot g'oyasi falsafa tarixiy rivojlanish jarayonining ilk davrlariga borib taqaladi. Mavzuga oid asarlarni o'rganish Ular ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy o'zgarishlar ko'rinishida namoyon bo'ladi. Demak, har qanday sharoitda an'anaviy jamiyshuni ko'rsatadiki, ijtimoiy taraqqiyot g'oyasi

FALSAFA

birinchidan, markazlashgan davlat barpo etishning natijasi, ikkinchidan, inson aql zakovati, ma'rifatning cho'qqisi, uchinchidan, axloq va huquq uyg'unligi sifatida talqin etildi.

To'rtinchidan, modernizatsiya jamiyatni uyg'otish, yangilash zamonaviy maorif vositasidagina sodir bo'luvchi ma'firi, madaniy jarayon sifatida asoslandi.

Beshinchidan, modernizatsiya an'anaviy jamiyatdan zamonaviy jamiyatga o'tish jarayoni bo'lib, fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning zaruriy sharti sifatida o'rganildi.

Demak, fuqarolik jamiyati huquqiy demokratik tashkil etilgan davlatgagina xosdir. Demokratlashtirish obyektiv umumiy xarakterga ega ekan, barqaror, zamonaviy davlatda ertami kechmi fuqarolik jamiyati shakllanadi. Shu nuqtai nazardan fuqarolik jamiyatining qaror topishi, rivojlanishi mamlakat modernizatsiyalashuvining o'ziga xos jihatini tashkil etadi. Fuqarolik jamiyatining mavjudligi - demokratlashtirishning, ya'ni jamiyat siyosiy tizimining modernizatsiyalashganlik darajasini ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi -T.: "O'zbekiston", 2021. -26 –27 betlar.
2. Sharofiddin Ali Yazdiy "Zafarnoma" -T.:Sharq,1994.-122 bet.
3. Gunnar Skirbekk,Nils Gile.Falsaфа tarixi. - Toshkent: Sharq, 2002. -157 bet.
4. Qarang: Kondorse J.A. Eskiz istoricheskoy kartini progressa chelovecheskoy istorii // Filosofiya istorii. Antologiya. M., 1994. -39 s.
5. Qarang:D.Antiseri, J.Reale. Zapadnaya filosofiya ot istokov do nashix dney. T.3. Ot vozrojdeniya do Kanta. Pod red. I v perevode S.A.Malsevoy. SPb, 2002. -S. 557- 572.
6. Sokolov V.V. Istoriko filosofskaya konsepsiya Gegelya // Filosofiya Gegelya i sovremennost.-M. 1973. -S.255-258.
7. Qodirov A. An'anaviy jamiyat va uni modernizatsiyalashtirish strategiyasi.-T,2006.-10-11 betlar.
8. Erkayev A. Milliy g'oya va ma'naviyat. –T.:Ma'naviyat, 2002.-35 b.
9. Qodirov A. An'anaviy jamiyat va uni modernizatsiyalashtirish strategiyasi.-T,2006.-10-11 betlar.
10. Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. - Toshkent: Ma'naviyat, 1999. – 136-bet.
11. Saifnazarov I. Pragmatizm Yangi O'zbekiston falsafa // Yangi O'zbekiston gazetasi, 2023 yil 25 fevral, 39-soni. -3 bet.
12. Qodirov A. An'anaviy jamiyat va uni modernizatsiyalashtirish strategiyasi.-T,2006. -38-bet.
13. Fedotova V.G. Modernizatsiya:pereosmislivaya teoriya i praktiku // Sotsiologicheskiy yejegodnik, 2010: Sb.nauch.tr RAN.INION, VSHE.- M., 2010. -S.63-65.
14. Kodirova Z.R., Yaxshilikov J.Ya. Tolerantnost-Modernizatsiya-Innovatsiya // Modernizatsiya,innovatsion taraqqiyot va tolerantlik rivoji istiqbollari(2 - kitob). -T.:Falsaфа va huquq instituti, 2010. -5-bet.
15. Utamurodov A.U. Some aspects of revealing of the political modernization processes in Uzbekistan. International Scientific Journal Theoretical & Applied Science. USA, 2016. Issue: 6, Volume: 38.-P. 106-107.